

## MARKAZIY OSIYO XALQLARI IJTIMOY-SIYOSIY, FALSAFIY AXLOQIY QARASHLARINING SHAKLLANISHIDA SIYOSIY JARAYONLARNING ROLI

**Gavhar Suvonkulova**

Harbiy xizmatchi

Email: mirzoulugbeksoniy@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada mintaqamizning yuksak taraqqiy etgan temuriylar hukmronligidan soʻng yana chingiziy moʻgʻullar istilosiga duch kelib, taraqqiyotda ortda qola boshlaganligi, yirik markazlashgan davlatni xonliklarga boʻlinib ketishi va xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotini yomonlashuvi, yuzaga kelgan vaziyatning falsafiy-axloqiy qarashlarga taʼsiri haqida mulohazalar joy olgan.

**Kalit soʻzlar:** xonliklar, shayboniylar, ashtarxoniylar, minglar, Qoʻqon.

Jamiyating ijtimoiy-madaniy hayotini qanday boʻlishi, xalqning falsafiy-axloqiy qarashlarining shakllanishida siyosiy jarayonlar asosiy oʻrin egallab kelgan va kelajakda ham shunday boʻlishi xech kimga sir emas. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiga nazar salsak, bu holat ayniqsa temuriylar hukmronligidan soʻng yanada yorqinroq koʻzga tashlanadi. Muhammad Shayboniyxon asos solgan koʻchmanchi oʻzbeklar davlati dastlab ikkiga boʻlinib ketdi va Buxoro va Xiva xonliklari tashkil topdi. Temuriylar davrida oʻz taraqqiyotining yuqori choʻqqisiga chiqqan mintaqa xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va maʼnaviy hayoti tushkunlik sari yuz tutdi.

XVII asrda yuz bergan eng muhim siyosiy jarayon hokimiyat shayboniylar sulolasi qoʻlidan ashtarxoniylar (joniylar, xoji tarxoniylar) qoʻliga oʻtishi boʻldi.

150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik boʻlmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning oʻzboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari oʻrtasidagi oʻzaro kelishmovchiliklar, ur-yiqitlar mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni Ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga koʻtarilgan oʻnta xondan ikkitasining taxtdan agʻdarilgani, toʻrttasining taxt ustida oʻldirilgani haqidagi maʼlumotlardan bilsa boʻladi.<sup>1</sup>

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi oʻz tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Davlat maʼmuriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga taqsimlanib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Erga egalik qilishning mulki sultoniy (davlat erlari), xususiy mulk, vaqf erlari shakllari mavjud edi. Xon davlat tasarrufidagi erlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, diniy ulamolarga suyurgʻol shaklida, saroy amaldorlari va harbiy qism boshliqlariga tanho shaklida inʼom qilardi.

<sup>1</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., Oʻzbekiston tarixi., Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" – 2006, 190-bet.

Suyurgʻol egalari xon xazinasiga soliq toʻlamas edi. Tanho qilingan erlar esa tanhodomining xususiy mulki boʻlmay, oʻsha erlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi.<sup>2</sup>

Chorvadorlar ham katta-katta erlarni egallab, oʻtroqlashib bordilar. Natijada Qoʻngʻirot, Mangʻit, Nayman, Doʻrmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda ersiz kambagʻal dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Yarlarda bugʻdoy, arpa, joʻxori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Aholi chorva mollarini boqib, goʻsht, sut mahsulotlari etishtirgan. Savdo-sotiq ishlari ham bir qadar oʻsib borgan. Tashqi savdoda Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron mamlakatlariga paxta, teri, jun va boshqa qishloq xoʻjaligi mahsulotlari sotilgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, choy, dori-darmon, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan.<sup>3</sup>

Bu davr shayboniylar hokimiyatga kelishi bilan boshlangan tushkunlik ashtarxoniylar davrida yanada kuchayishi bilan birgalikda diniy mutaassiblikning rivojlanishi bilan taraqqiyotning pasayib ketishi bilan xarakterlanadi.

Shunday bir beqaror vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh Oʻrta Osiyo xonliklariga hujum boshladi, Xiva, Buxoro xonliklari hududlarida bir qancha vaqt oʻz hukmronligini yurgizdi. Shaharlarni (Xiva, Buxoro, Samarqand) toʻpga tutib, vayron qildi, u erlardagi noyob narsalarni oʻlja sifatida Eronga joʻnatdi. Ular ichida Mirzo Ulugʻbek hozirgi Qirgʻizistonning Chu vodiysi togʻlarida moʻgʻul xonlaridan Shermuhammadxonga qarshi janglar olib borib, uning saroyidan oʻlja sifatida Samarqandga keltirgan va bobosi Sohibqiron Temur sagʻanasiga qoʻydirgan qora yashil tosh hamda Bibixonim masjidining naqshinkor darvozasi ham boʻlgan. Keyinchalik Nodirshoh Olloh taoloning qahridan qoʻrqib, ularni yana Samarqandga qaytargan ekan.<sup>4</sup>

Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega boʻlgan mangʻit urugʻidan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qoʻyiladi, Hakimbiy Buxoroning toʻla vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743-yilda Hakimbiy, uning oʻgʻli Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747-yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni oʻz qoʻliga olishga kirishadi.<sup>5</sup>

Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli, u XVIII asr boshlarida ikkiga boʻlinib ketdi. Ashtarxoniylar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Fargʻona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bosqin uyushtirib, yurtni talon-taroj qila boshladi. Bunday vaziyat Fargʻonadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Fargʻona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishga qulay omil boʻlib xizmat qildi. Chust yaqinidagi Chodak qishlogʻida yashovchi xoʻjalar jamoasi (din peshvolari)ning mavqeyi XVIII asr boshlaridayoq Fargʻonada ancha kuchayib, 1709-yilda oʻz er-mulklarini mustaqil deb eʻlon qiladi va vodiya hokimiyatni qoʻlga olishga intiladilar. Biroq ularning hokimiyati boshqa urugʻ-qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qoʻzgʻolon koʻtarib, Fargʻona hokimi Xoʻja Ashirqulni oʻldiradilar. 1709-yilda Qoʻqon atrofida yashab turgan oʻzbek qabilalaridan biri - minglar hokimiyatni oʻz qoʻllariga oldilar va oʻz etakchisi Shohruxbiyni hokimiyat tepasiga koʻtaradilar. SHu tariqa, Qoʻqon xonligi tashkil topdi, oʻzaro ichki kurashlar botqogʻiga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon oʻziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik koʻrsatolmadi. Qoʻqon xonligida ming urugʻi sulolalari 1876-yilgacha hukmronlik qildi.<sup>6</sup>

Qoʻqon xonlari Fargʻona vodiysini, Xoʻjand, Oʻratepani birlashtirgach, Qoʻqon xonligining mustaqilligi XVIII asr oʻrtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qoʻqon xonlari Toshkentni boʻysundirishga kirishdilar.<sup>7</sup>

<sup>2</sup> Oʻsha joyda.

<sup>3</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., Oʻzbekiston tarixi., Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" – 2006, 191-bet.

<sup>4</sup> R.Orzibekov., Oʻzbek adabiyoti tarixi., T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, 2006, 5-bet.

<sup>5</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., Oʻzbekiston tarixi., Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" – 2006, 191-bet.

<sup>6</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., Oʻzbekiston tarixi., Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" – 2006, 194-bet.

<sup>7</sup> Oʻsha asar 195-bet

Bu holat markaziy osiyoliklarning keyingi taqdirini belgilab berdi. Yangi davlatning paydo bo'lishi – bu yangi jamiyat, yangicha dunyoqarash, yangicha falsafa deganidir.

XVII – XVIII asrlarda Markaziy Osiyo iqtisodiy turg'unlik hududiga aylandi. Bunga asosiy sabab nafaqat madaniy-xo'jalik va savdo yo'llarining avvalgi ahamiyatining yo'qolishi, balki siyosiy beqarorlik, o'zaro urushlar va tarqoqlik edi. Bu sabablar, tobora kuchayib borayotgan tashqi dunyodan uzilish bilan birga harbiy-siyosiy va iqtisodiy o'sishga ham to'siq bo'layotgan edi. Bu davrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy jihatdan G'arbdan ajralib qoldi, Rossiya bilan munosabatlar esa cheklangan savdo maqsadini ko'zlab amalga oshirilar edi. Janubiy va sharqiy qo'shnilar – eron, Afg'oniston, Hindiston va Xitoy bilan odatiy savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar saqlab turilgan edi.<sup>8</sup>

Xonliklarning yirik shaharlari hunarmandchilik markazlari bo'lib, ularda 60 dan ortiq turdagi hunarmandchilik buyumlari tayyorlangan. Paxta, ipak, jun, teri kabi mahalliy xomashyolardan ip yigirish, gazlamalar to'qish, tayyor kiyimlar tikish, kigiz va gilamlar tayyorlash, ko'ncilik rivojlangan. Metall va yog'ochga ishlov berish, miskarlik, temirchilik, ganch o'ymakorligi, duradgorlik, kulolchilik, qandolatchilik, oshpazlik, novvoylik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari ancha kengaydi.<sup>9</sup>

Xonliklarda raiyat (dehqon, chorvador, hunarmand, savdogar)ga turli-tuman soliqlar solingan, turli majburiyatlarga – kanal va ariqlar qazish, ularni tozalash, mudofaa inshootlarini qurish va boshqa ishlarga majbur etilgan. Xonliklarda quyidagi soliq turlari mavjud edi: xiroj (erdan olingan hosilning beshdan bir qismi); zakot (chorvador va savdogarlar uchun m olning qirqdan bir miqdorida); tamg'a (hunarmandlar va do'konlar maxsus soliq to'lagan); taxti joy - tagjoy (o'z mahsulotlarini ijaraga olingan do'konda sotuvchilar uchun); juzya (boshqa dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotining beshdan birqismini to'lagan); ixrojt (saroy harajatlarini ta'minlash uchun yig'iladigan soliq); qo'nalg'a (elchilar, amaldorlar, choparlami tekinga mehmon qilish); tarixiy manbalarda qayd etilishicha, xonliklarda 60 dan 90 gacha turdagi soliqlar undirilgan.<sup>10</sup>

Sulolalar o'rtasidagi kurashlar, xonliklar o'rtasidagi kurashlar, Nodirshohning xonliklarga qilgan hujumi, soliq turlarining ko'pligi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiga ta'sir qilmay qolmadi. Natijada xonliklarda satira janrida ijod qiluvchi Shoirlar yetishib chiqdi. Ular o'z ijodlarida sodir bo'layotgan siyosiy jarayovlarni, xonlar va amaldorlarning jabr-zulmini o'zlarining xajviy asarlari bilan tasvirlab berdilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Orzibekov., O'zbek adabiyoti tarixi., T.: O'zbekiston YOZuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006
2. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., O'zbekiston tarixi., Toshkent:"Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2006
3. O'.Mavlonov, D.Mahkamova., Madaniy aloqalar va savdo yo'llari., Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2004
4. Xo'janazar Huvaydo., Devon., Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005
5. Xo'janazar Huvaydo., Rohati dil., Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994
6. N.Jumaxo'ja, I.Adizova., O'zbek adabiyoti tarixi., Toshkent: Noshir nashriyoti, 2019
7. Kodirkul Ruzmatzoda., О жизни и творчестве суфийского поэта и мыслителя Хувайдо., International Scientific Journal Theoretical & Applied Science., Ear: 2018 Issue: 04 Volume: 60
8. Islom ensiklopediyasi (Shayx Abdulaziz Mansur tahriri ostida), T.:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.,2017
9. I.Kuzikulov., Qo'qon xonligi tarixi., N.: "Namangan" nashriyoti, 2014
10. B.M.Babadjanov Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya., TOKIO-TASHKENT., 2010

<sup>8</sup> O'.Mavlonov, D.Mahkamova., Madaniy aloqalar va savdo yo'llari., Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2004, 41-bet

<sup>9</sup> Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova., O'zbekiston tarixi., Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA" – 2006, 197-bet.

<sup>10</sup> O'sha joyda